

QONUNCHILIK HUJJATLARI TIZIMINING DEALEKTIK MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI



Adilkariyev Xojimurod To'xtamurodovich

yuridik fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz milliy qonunchiligi hamda xorijiy huquqiy tizimlarda namoyon bo'layotgan normativ huquqiy hujjatlar qadrsizlanishi (inflyatsiyasi) tendensiyasi tahlil etilgan. Ushbu hodisaning mohiyati, xususiyatlari, belgilari falsafiy "miqdor" va "sifat" kategoriyalarining dialektik nisbati nuqtai nazaridan ko'rib, baholangan. Mazkur tendensiyaning bartaraf etish yo'llari yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qonunchilik, tendensiya, qonunchilik inflyatsiyasi, qonunning sifati,; miqdor va sifat dialektikasi, qonun loyihalari ekspertizasi, kodifikatsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции национального и зарубежного законодательства, а именно: проявляющаяся в последние годы законодательная инфляция. Данное явление анализируется и оценивается через диалектическое соотношение категории "количество" и "качество".

Вносятся предложения и рекомендации по устранению тенденций инфляции законодательства.

Ключевые слова: законодательство, тенденции, законодательная инфляция, качество закона, диалектика количества и качества нормативного акта, правовая экспертиза законопроекта, кодификация.

Abstract. This article explores contemporary trends in both national and international legislation, focusing on the phenomenon of legislative inflation that has become increasingly evident in recent years. The study analyzes and evaluates this phenomenon through the dialectical framework of "quantity" and "quality."

Proposals and recommendations are provided for eliminating the tendencies of legislative inflation.

Keywords: legislation, trends, legislative inflation, quality of law, dialectics of quantity and quality in normative acts, legal review of draft laws, codification.

Bugungi kunda huquqiy islohotlarning jadallashuvi, shunga mos tarzda qonun (huquq) ijodkorligi faoliyatining aktivlashuvi namoyon bo'layotgan vaziyatda qonunchilik tizimining takomillashuv dinamikasi hamda tendensiyalarini ilmiy tahlil va tadqiq etish o'ta dolzarb mavzuga aylandi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar tizimini yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yanada takomillashtirish jarayonida erishilayotgan ko'plab muvaffaqiyatlar, yutuqlar qatori, ba'zi muammolarga ham duch kelinmoqda.

Masalan, qabul qilinayotgan qonunlarning, shu jumladan barcha qonunosti hujjatlarining samaradorligini, qonun ijodkorligi faoliyati sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 8-avgustida qabul qilgan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [1], O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarni amalga oshirishga doir (2018-yil 7-sent.) va (2022-yil 21-dek.) ikkita farmon [2], "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun (2021-yil 20-aprel) [3], O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2024-yil 15-fevraldagi

“Qonun ijodkorligini takomillashtirish bo'yicha Dastur” to'g'risida qo'shma qarori[4] qabul qilingan.

Mazkur rahbariy hujjatlar nafaqat qonun ijodkorligi faoliyati sifatini, balki qonunlarning o'zini sifatli bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilganligi shubhasizdir.

Biroq, normativ-huquqiy hujjatlar miqdori yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Hozirgi paytda Lex.UZ fondi 26 mingdan ortiq hujjatni o'z qamroviga oladi, shundan 17,5 mingga yaqini yoki 65 foizi oxirgi 8 yilda qabul qilingan [5].

Yangi O'zbekistonning huquqiy tizimini qaror toptirish sharoitida qonunchilik tizimi talqiniga falsafiy metodologiya pozitsiyasidan yondashish uning mohiyati va rivojlanish dialektikasini mufassal ochishga imkon beradi. Shu bois normativ-huquqiy hujjatlar tizimini dialektik dunyoqarash asosida tahlil qilish, jumladan, “miqdor” o'zgarishlarining «sifat» o'zgarishiga o'tishi, “inkorni inkor”, «qarama-qarshiliklar birligi va kurashi», shuningdek, “mohiyat” va “hodisa”, “tizim” va “qism”, “sabab” va “oqibat”, “mazmun va shakl”, «zarurat va tasodif» kabi falsafa kategoriyalari hamda qonunlari orqali tahlil qilish ushbu nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisa xususida boy va chuqur bilim hosil qilishga yo'l ochadi.

Ma'lumki, jamiyatdagi hodisa, voqelik va jarayonlarning sifat muayyanligi (mavjudlik holati) ularni barqaror qiladi. Sifat narsaning (qonunchilik tizimining) muhim muayyanligidir. Shu bois sifat voqelikning borligi, namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi [6; 276]. Albatta, qonunchilik tizimi *sifat* muayyanligi bilan bir qatorda, *miqdor* muayyanligi (son, hajm, jarayonlarning, tarkibiy qismlarning yuzaga kelishi sur'ati, rivojlanish darajasi va h.k.)ga ham ega. Miqdor tizimning shunday mavjudligidirk, shu tufayli uni real ravishda (yoki fikran) bir jinsli qismlarga bo'lish va bu qismlarni bir butun qilib to'plash mumkin.

Sifat narsa (tizim)ning yalpi umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. Sifatdan farqli o'laroq, miqdor qonunchilik tizimining borlig'i bilan bevosita bog'liq. Dialektikaning mantig'iga ko'ra, har bir hodisa, predmet uchun xos xususiyat shuki, u muayyan chegaraga yetgach, miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Har bir hodisa (predmet)dagi sifat va

miqdor birligi (nisbati) *me'yorni* ifodalaydi, *u sifat kattaligi* jihatidan *miqdor* va *miqdor jihatidan muayyan sifatdir*.

Predmet (narsa)larning sifati abadiy emas, u o'zgarishlarga moyil. Predmetning sifati ma'lum miqdor muayyanligidan ayro mavjud bo'lmaydi. Hamisha bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish qonuniyatli tarzda ro'y beradi. Narsaning sifati va miqdori o'zaro uzviy mushtarak [7; 233].

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi – falsafaning muhim qonunlaridan biri. Uning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalarda sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bosqichida *me'yor* buziladi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi. Sifatning o'zgarishi, muqarrar ravishda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Sifat predmet (hodisa) ning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifodalaydi [7; 276]. Mazkur falsafiy metodologik mezon va talablarni qonunchilik tizimiga tatbiq etish orqali ushbu tizimdagi *miqdor* va *sifat o'zgarishlari dialektikasini* anglab yetish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qonun ijodkorligi faolligi ko'rsatkichlari quyidagicha: agar 2016-yilga qadar har yili 15-20 ta qonun qabul qilingan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 125 taga yetdi, bu 6 baravardan ortiq o'sish degani.

Bunday dinamika faqat qabul qilinayotgan qonunlar soni ortayotganini emas, balki *islohotlar huquqiy jihatdan kompleks ta'minlayotganini*, sohaviy o'zgarishlar tezkor va maqsadli huquqiy asoslar bilan mustahkamlanayotganini ko'rsatadi [8; 1].

Ushbu holatni ilmiy tadqiq qilib, huquqiy tizimda muayyan *qonunchilik inflyatsiyasi* (qadrsizlanishi) tendensiyasi namoyon bo'layotganligini ta'kidlash mumkin. *Qonunchilik (normativ-huquqiy hujjatlar) inflyatsiyasi* – bu shunday vaziyatki, unda normativ-huquqiy hujjatlar miqdori jadal ortib borishi va ayni vaqtda, ularning sifati, ichki mutanosibligi va tartibga solish samaradorligi pasayishi kuzatiladi.

Yuridik adabiyotlarda mazkur muammoga turlicha qarashlar mavjud. Masalan, professor A.V.Deminning fikricha, *qonunchilik inflyatsiyasi* – qonun ijodkorlik faoliyatining faollashuvi, uning tinimsiz jadallashuvi, *bir tomondan*, normativ

hujjatlar massivining barqaror o'sib borishi, *ikkinchi tomondan*, amaldagi normativ hujjatlarga muttasil qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borilishidir.

Professor S.A. Belousov *yuridik inflyatsiya* – bu muayyan sohada qonunchilik hujjatlarining muvozanati buzilishi, qonunchilik tizimida kolliziya, normativ qoidalarining haddan ziyod ko'payishi, ularning o'ta ixtisoslashtirilishi oqibatidagi nomutanosiblik, deydi [9; 16-22].

Rossiyalik olim V.N. Shutovanning ta'kidlashicha, «qonunchilik tizimidagi miqdor ko'rsatkichlarining asossiz ortishi – tabiiy ravishda qonunlar sifatining pasayishiga olib keladi» [10; 18-26] va bu normativ hujjatlarga tinimsiz ko'plab qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'ladi.

Aslida qonun ijodkorligida qonunlarni yangi tahrirda qabul qilish, ularga zarur tuzatish va to'ldirishlarni kiritish – foydali, ijobiy uslub hisoblanadi. Bu yerda gap normativ-huquqiy hujjatlarga asossiz ravishda, tez-tez o'zgartirishlar kiritilaverishi oqibatida yuzaga keladigan qonunchilik inflyatsiyasi haqida bormoqda [10; 55]. Masalan, T.N. Moskalkova bunday vaziyatni jamiyat va davlatning real ehtiyojlarini inobatga olmasdan, shoshma-shosharlik bilan qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi, deb baholaydi [11; 137-148].

Xo'sh, qonunchilik inflyatsiyasi namoyon bo'lishining asosiy belgilari qanday?

Birinchidan, huquqiy normalarning haddan ziyod ko'payib ketishi, qonun va qonunosti hujjatlar katta hajm (miqdor)da qabul qilinaverishi (ba'zan, bunga ehtiyoj bo'lmasa ham) oqibatida mantiqiy tizimlilik buziladi.

Ikkinchidan, norma ijodkorligining sifati pasayadi – shoshma-shosharlik va muammoga ilmiy yondashuvning yo'qligi bois ziddiyatlar, kolliziya (ixtilof) va qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Uchinchidan, qonunchilik hujjatlariga tez-tez o'zgartirishlar kiritilishi tufayli normalar tez eskiradi, tuzatishlar ko'pligi huquqiy tizimni barqarorligiga putur yetkazadi.

To'rtinchidan, huquqiy tizim yuklamasining o'ta ortib ketishi fuqarolar, tadbirkorlar va davlat organlari uchun normativ massivda mo'ljal olishni, ulardan foydalanishni murakkablashtiradi.

Beshinchidan, normalar dekorativligi – ba'zi qonunlar nomigagina qabul qilinadi, ko'pincha,

ularning amalga oshirish mexanizmi bo'lmaydi. Oqibatda, huquqqa, qonunga ishonch susayadi, yechimsiz nizolar ko'payadi.

Demak, “qonun (farmon, qaror)lar qancha ko'p” bo'lsa, ularning “(har bir huquqiy normaning)” qadr-qimmati proporsional ravishda past bo'ladi. Shunday qilib, *qonunchilik inflyatsiyasi* – bu huquq (qonun)ning, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarining *qadrsizlanishi* va nobarqaror bo'lib qolishidir.

Xorijiy mamlakatlar huquqiy tizimida ham shunday tendensiya mavjud. Masalan, Germaniyada bu holat “наводнение законов” – “qonunlar sonining haddan ziyod ortib ketishi”; Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida «normativ hujjatlar manbalarining inqirozi», Italiyada “tartibsiz huquq ijodkorligi” degan kategoriya (ibora)lar qo'llaniladi.

Rossiya Federatsiyasida ushbu holat quyidagi raqamlarda namoyon bo'ladi. Mamlakat Davlat Dumasi 1991-yilda atigi 63 ta qonun qabul qilgan bo'lsa, 1994–2014 yillarda – 4411 ta; 2011–2016 yillarda – 2200 ta; 2017-yilda – 641 ta qonun qabul qilgan. Demak, 2011–2017yillarda har yili o'rtacha – 460 tadan jami 3220 ta qonun qabul qilingan [15; 22].

Ruminiyalik huquqshunos-tadqiqotchi M.Badesku qonunchilik inflyatsiyasini “*normativ sui-iste'mollik*” deb nomlaydi; buni “huquq normalarining notabiiy ko'payishi” tendensiyasi tarzida ta'riflaydi [16; 357–369].

Fikrimizcha, qonunchilik hujjatlari inflyatsiyasi quyidagi salbiy tendensiyalarda namoyon bo'lishi mumkin:

- qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning sifati pasayadi;
- ushbu hujjatlarning qadri, nufuzi susayadi;
- huquqiy tartibga solish samaradorligi kamayadi;
- qonunchilikni amaliyotga joriy etish sohasidagi ijro intizomi susayadi;
- normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyat, kolliziya, qarama-qarshiliklar, nomutanosibliklar kuchayadi;
- qonun ustuvorligi prinsipi zavol topib, qonunlarning umumiy tartibga solishdagi roli hamda ta'siri pasayadi;
- huquqni qo'llash amaliyoti murakkablashadi;
- qonunchilik tashabbusini namoyon etish markazi ijro organlari tomonga og'adi;

– qonun va huquq ijodkorligida nazoratsizlik kelib chiqadi;

– idoraviy me'yoriy hujjatlarning salmog'i haddan ziyod ortib ketadi;

– qonunchilik hujjatlariga fuqarolarning ishonchi kamayadi;

– qonunchilik madaniyati pasayadi; huquqiy nigilizm kuchayadi;

– yuqoridagi tendensiyalar aholi huquqiy ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir etadi va hokazo.

Bunday vaziyatda qonunchiliklar hujjatlari inflyatsiyasini bartaraf etish choralarini ko'rish lozim bo'ladi.

Muammoning yechimiga oid to'xtamlardan biri shuki, *Parlamentga kiritilayotgan qonun loyihalarining sifatli ishlab chiqilishini ta'minlash* muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, *qonunlarning sifatligi* mezonlari (belgilari) nimalardan iborat? Bu talablar, nazarimizda, quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– qonunlar (uning moddalari) matnining ixcham, ravon, lo'nda hamda fuqarolarga tushunarli qilib shakllantirilishi;

– qonunlar (ulardagi qoidalar)ning normativligi ta'minlanishi;

– huquqiy hujjatlar matnining mantiqiy bo'lishi;

– qonunchilik hujjatlaridagi normativ ifodalarning savodliligi (grammatik puxtaligi);

– qonunlarning ular tartibga solayotgan munosabatlar mazmuniga mutanosibli;

– huquqiy tartibga solishning natijadorligi hamda samaraliligi;

– qonun normalarida ichki huquqiy mexanizmining mavjudligi, uning mukammalligi;

– qonun normalarining tegishli hayotiy vaziyatga mazmunan mosligi (yaqinligi);

– qonunlarning tizimlilik xususiyatiga egaligi ta'minlanganligi va hokazo.

Qonun loyihalarining *Parlamentga yetarli darajada sifatli tayyorlanmagan holda kiritilishi* mutasaddi idoralarning huquqiy ekspertiza sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ushbu funktsiya Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ayni vaqtda, vazirlik va idoralarda ham norma ijodkorligi borasidagi *ko'nikma va mas'uliyat darajasi hamon yetarli emasligini ta'kidlash* lozim. Bu, ayniqsa, huquqiy ekspertiza uchun taqdim

etilayotgan qonun loyihalarining sifat darajasi pastligi orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumot uchun: Adliya vazirligi tomonidan oxirgi bir yarim yilda (2024–2025-y.) 355 ta qonun loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan bo'lsa, ushbu loyihalarining 68 tasi (yoki 19 foizi)ni qabul qilish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa berilgan va ularning yuqori instansiyalarga kiritilishining oldi olingan. Vazirlik tomonidan 355 ta qonun loyihasiga 2365 ta e'tiroz bildirilgan. E'tirozlarning 1302 tasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid normalar mavjudligi, 409 tasi qonunchilik texnikasiga nomuvofiqligi va 35 tasi esa korrupsiyaviy omillar borligi yuzasidan konseptual e'tirozlar hisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza jarayonida vazirlik va idoralar tomonidan kiritilgan loyihalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga nomuvofiq bo'lgan hujjatlar ham aniqlanmoqda.

Taassufki, so'nggi yillarda ishlab chiqilayotgan loyihalar sonining keskin ortishi oqibatida ayrim masalalar huquqiy ekspertiza jarayonidan chetda qolmoqda. So'nggi bir yarim yil davomida Adliya vazirligiga 3407 ta loyiha huquqiy ekspertiza uchun kiritilgan bo'lib, ularning 405 tasi (12 foiz) qonunlar, 967 tasi (28 foiz) Prezident farmon va qarorlari, 2035 tasi (60 foiz) Hukumat hujjatlari hisoblanadi.

Masalan, agar 2016-yilda ekspertiza uchun 1737 ta loyiha taqdim etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2350 taga yetgan. Qonun loyihalari soni esa shu davrda 134 tadan 296 tagacha oshgan – bu ikki barobar o'sishni anglatadi.

Yana bir tendensiya shundan iboratki, aniq amalga oshirish mexanizmlariga ega bo'lmagan, umumiy xarakterdagi qonunlarning ko'pligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni qiyinlashtirib, ularni qonunosti hujjatlari orqali tartibga solinishiga olib kelmoqda.

Afsuski, mas'ul idoralar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqini ro'yobga chiqarishda ushbu masalalarga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Xususan, Adliya vazirligi tomonidan 2024-yilda huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan qonun loyihalarining 32 tasida 100 dan ortiq havoilaki normalar mavjudligi aniqlangan.

Yaxlit tizimning bevosita ishlashini ta'minlovchi tartib va qoidalarining ko'plab qonunosti hujjatlari bilan o'rnatilishi ularda tor idoraviy manfaatlarining

aks ettirilishiga, o'zaro zid kollizion normalar yuzaga kelishiga va qonunlar ijrosi amalda ta'minlanmasligiga sabab bo'lmoqda [8; 4–9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-yil 20-yanvar) quyidagi ma'lumotni bayon qilgan edi: "So'nggi ikki yilda 90 dan ziyod qonun, 2000 dan ziyod farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularda 13,5 mingta topshiriqlar berilgan. Biroq, shulardan 20 foizi bajarilmagan yoki muddati kechiktirib ijro etilgan" [12]. Buni ham normativ-huquqiy hujjatlar qadrsizlanishining belgisi (ifodasi) deyish mumkin.

Ta'kidlash joizki, qonunlarni amalda to'liq ishlashini ta'minlash maqsadida 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 75-son qarori [13] ijrosi doirasida 23 ta qonundagi 41 ta havolaki normaning ijro mexanizmlarini joriy etish choralari ko'rildi. Shuningdek, Hukumat qarori bilan ham 18 ta qonundagi 22 ta havolaki normaning ijro mexanizmlarini joriy etish amalga oshirildi.

Fikrimizcha, qonunlarning sifatini oshirish uchun parlament a'zolarining qonunchilik texnikasi talablaridan xabardorligini oshirish, tegishli bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlariga zarur sharoitlarni yaratish lozim.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonunchilik hujjatlari sifatini oshirish va ularning barqarorligini ta'minlashdagi samarali mexanizmlardan biri – **huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash instituti**. Ushbu tizim mamlakatimizda amaliyotga 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va hozirga kelib uning huquqiy hamda metodik asoslari yetarli darajada shakllandi.

Normativ hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash instituti, avvalo, fuqarolar manfaatini himoya qiladigan, tadbirkorlik muhitini yaxshilaydigan va davlat boshqaruvini samarali hamda shaffof qiladigan muhim huquqiy filtr sifatida xizmat qiladi, deya e'tirof etish mumkin.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, loyihalarni ta'sirini baholash ko'rsatkichi 2021-yilda 25 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 100 foizga yetkazildi.

2025-yildan boshlab har bir qonunchilik hujjati loyihasi ishlab chiqilishidan oldin, dastlab uning konsepsiyasi o'rganiladi, ya'ni avval mavjud

muammo tahlil qilinib, ushbu hujjatni qabul qilish zarurati bormi yoki yo'qmi, degan savolga aniq javob beriladi. Shu tarzda samara bermaydigan yoki ortiqcha cheklov, asossiz majburiyat va iqtisodiy, moliyaviy yuklama keltirib chiqaradigan tashabbuslarning boshidanoq oldini olish imkoni paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, Hukumat tomonidan tasdiqlanadigan reja asosida har yili amaldagi qonunchilik hujjatlari tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkaziladi. Xususan, 2024-yilda 15 ta qonun baholashdan o'tkazilib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha Hukumatga 20 dan ortiq takliflar kiritildi.

Qonunchilik hujjatlarining ta'sirini baholash va ularning ijrosini o'rganish bo'yicha ishlar sifati va samaradorligini oshirish maqsadida Adliya vazirligi huzurida *Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy institut* tashkil etildi. Shu munosabat bilan, fikrimizcha, mazkur institut doirasida sohaga oid chuqur sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tegishli sotsiologik tadqiqotlarsiz bu ish kam samarali bo'lib qoladi.

Institut bevosita vazirlik va idoralarga qonunchilik hujjatlari ta'sirini baholash, ularni tizimlashtirish va ijrosi monitoringini amalga oshirishda amaliy va uslubiy jihatdan yaqindan ko'maklashishi mumkin.

Qonunchilik inflyatsiyasini bartaraf etish choralari va yo'llari. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish maqsad qilingan.

Bu yo'nalishda, 2023 – 2024-yillarda qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish hisobiga 2981 ta qonunchilik hujjati o'z kuchini yo'qotgan deb topildi. Natijada, qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasidagi yaxlit hujjatlar 17 foizga qisqartirildi. 2025-yilda ham bu ishlar davom ettirilib, qonunchilik fondini qo'shimcha 5 foizga qisqartirish imkonini beradigan 5 ta loyiha ishlab chiqildi (*ular bilan 907 ta hujjat bekor qilindi*) hamda ko'rib chiqish uchun yuqori instansiyalarga kiritildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan *Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish bo'yicha dasturi* asosida qonunchilik hujjatlari sohalar kesimida tizimlashtirilmoqda.

Xususan, *birinchi bosqichda* (2021 – 2023-yillar) 75 ta vazirlik va idoralar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, tizimlashtirilishi ta'minlandi.

Ikkinchi bosqichda (2022 – 2025-yillar) 56 ta qonunchilik sohasini tartibga soluvchi hujjatlarni tizimlashtirish belgilangan bo'lib, bugungi kunga qadar 49 ta qonunchilik sohasi to'liq qayta ko'rib chiqildi.

Shuningdek, so'nggi bir yarim yil ichida 40 ta loyiha (jumladan, 6 ta qonun loyihasi) ishlab chiqildi, ularning qabul qilinishi natijasida o'z ahamiyatini yo'qotgan 667 ta hujjat bekor qilindi hamda qonunchilik bazasi 4 foizga ixchamlashtirildi.

Hozirga qadar, tizimlashtirish dasturi doirasida 72 ta hujjat, jumladan 6 ta qonun, 11 ta Prezident farmoni, 3 ta Prezident qarori, 30 ta Vazirlar Mahkamasi qarori hamda 22 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat *qabul qilindi*.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati yalpi majlisida ta'kidlanishicha, oxirgi bir yarim yilda 258 ta idoraviy hujjatni qonunlarga muvofiqlashtirish bo'yicha 30 dan ortiq vazirlik va idoralarga 87 ta taqdimnoma va xatlar kiritildi. Natijada, vazirlik va idoralarning 172 ta idoraviy hujjatlari qonunlarga muvofiqlashtirildi. Ushbu tendensiya davom ettirilib, idoraviy me'yoriy huquq ijodkorligini qisqartirish hamda oqilona cheklash choralarni ko'rish muhim [14].

Normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo'yicha ko'rib chiqishda ularni yagona qonun hujjatida aks ettirish tegishli sohada mustahkam huquqiy poydevor yaratilishiga xizmat qiladi.

Qonunchilik inflyatsiyasini bartaraf etishda normativ-huquqiy hujjatlarni *inventarizatsiya* qilib turish, shu asosda ularni tizimlashtirish (kodekslashtirish) samarali rol o'ynashi mumkin. Qonunchilik hujjatlarini kodifikatsiyalashda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan 2025 – 2029-yillarga mo'ljallangan qonun ijodkorligi dasturining amalga oshirilishi juda muhim hisoblanadi.

Ushbu dasturni to'liq amalga oshirish milliy qonunchilik bazasidagi qonun hujjatlari ulushining sezilarli darajada oshishiga, 40 dan ortiq sohada normativ-huquqiy hujjatlarni tarmoqlar bo'yicha *kodifikatsiyalashga* xizmat qiladi. Shuningdek, 2025 – 2026-yillarda 13 ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy

sohalarda qonunchilikni kodifikatsiyalash bo'yicha zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sog'liqni saqlash, transport, sug'urta va energetika sohalarida kodifikatsiyalash rejalashtirilgan.

Vakolatli va mutasaddi idoralar tomonidan norma ijodkorligi jarayonlari raqamlashtirilib, sun'iy intellekt texnologiyalari faol integratsiya qilib kelinmoqda. Jumladan, ushbu sohadagi eng muhim qadamlardan biri LexAI sun'iy intellektga asoslangan huquqiy yordamchining ishga tushirilgani bo'ldi. Ushbu SI-yordamchining boshqa raqobatchilardan farqli jihati shundan iboratki, u bevosita Lex.uz bazasiga ulangan bo'lib, barcha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirilgan. LexAI qonunchilikka kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar asosida o'zini o'zi doimiy yangilab boradi.

Hukumat tomonidan norma ijodkorligi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish maqsadida project gov uz portalining yangi talqini ishga tushirildi. Bunda loyihani yaratish, tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish, idoraviy kelishish, ilmiy, korrupsiyaga qarshi hamda huquqiy eksperti-zalardan o'tkazish va yuqori instansiyalarga kiritish bosqichlari to'laigicha raqamlashtirildi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Qonunlarning sifatini oshirish uchun parlament a'zolarining qonunchilik texnikasi talablaridan xabardorligini oshirish, tegishli bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlariga sharoit yaratish zarur. Shuningdek, qonun loyihalarini tayyorlash hamda ularni muhokama qilishga malakali huquqshunos-olimlarni kengroq jalb etish lozim.

2. Huquq ustuvorligini ta'minlashda qonunlarning sifati bilan bir qatorda, ularning amalda samarali tatbiq etilishi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu maqsadda qonunlarning ko'zlangan maqsadlarga xizmat qilayotganini, yetarli resurslar bilan ta'minlanganini va ijrosi qanday natija berganini aniq ko'rsatkichlar asosida baholaydigan tizim yaratish maqsadga muvofiq, ya'ni qonunning KPI ni hisoblashni yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu tizim qonun ishlashi uchun zarur huquqiy baza, moliyaviy va moddiy-texnik hamda inson resurslari mavjudligini, huquqiy normalarning sifatli amalga oshirilishini va maqsadlariga qay darajada erishilayotganini kuzatish, shuningdek,

tizimdagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlab, tegishli chora ko'rish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi chora-tadbirlarni izchil, kompleks qo'llash (amalga oshirish) orqali qonunchilik tizimidagi noxush tendensiyalarni,

kolliziya va ziddiyatlarni bartaraf etish, sohadagi hujjatlar sifati va samaradorligini ta'minlashga erishish mumkin. Bunda qonun ijodkorligi bilan norma ijodkorligini o'zaro muvofiqlashtirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 06/18/5505/1639-son; 09.11.2019-y., 06/19/5870/4010-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son. // <https://lex.uz/docs/3858817>
2. "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 979-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5304/0591-son; 03.03.2018-y., 06/18/5329/0846-son; 04.05.2018-y., 06/18/5428/1158-son, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son, 07.06.2018-y., 06/18/5456/1316-son, 08.06.2018-y., 06/18/5457/1324-son, 11.07.2018-y., 06/18/5475/1489-son, 14.07.2018-y., 06/18/5477/1505-son; 01.08.2018-y., 06/18/5496/1603-son, 01.08.2018-y., 06/18/5497/1604-son, 28.08.2018-y., 06/20/5526/0983-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 19.03.2020-y., 06/20/5968/0331-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son. // <https://lex.uz/docs/3331174>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi O'RQ-682-son qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son; 04.08.2022-y., 03/22/787/0708-son, 27.10.2022-y., 03/22/796/0966-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 19.02.2024-y., 03/24/909/0133-son; 05.09.2024-y., 03/24/954/0682-son; 19.10.2024-y., 03/24/976/0833-son; 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son; 10.04.2025-y., 03/25/1054/0329-son // <https://lex.uz/docs/5378966>.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 15-fevraldagi № 4036-IV/KQ-683-IV-son qo'shma qaroriga 1-ilova. Qonun ijodkorligi faoliyati bo'yicha Dastur // <https://lex.uz/docs/6853994>.
5. <https://lex.uz/statistic>.
6. Falsafa: qomusiy lug'at. – T., 2004.
7. Краткий философский словарь. (Авт.колл.). – М., 1954.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 25 yil 16-avgustdagi yalpi majlisida Adliya vaziri taqdim etgan ma'lumot.
9. Белоусов С.А. Юридическая инфляция как форма проявления законодательного дисбаланса // Правовая политика и правовая жизнь, 2015. – №2.
10. Шутова В.Н. Законодательная инфляция и другие тенденции современного законодательства: сравнительно-правовой аспект // Журнал о праве, 2023. – №3.
11. Москалькова Т.Н. Качество современного российского законотворчества // Вестник Н-нов. городской академии МВД РФ, 2013. – №22.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi / "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 21-yanvar.
13. "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.03.2025-y., 07/25/75/0197-son. // <https://lex.uz/docs/7409802>.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2025-yil 16-avgustdagi yalpi majlisi // "Xalq so'zi", 2025 yil 17-avgust.
15. Сехин И.В. Законодательная инфляция как актуальная проблема правового регулирования. – Калининград ГУ, 2016.
16. Badesku M. "Legislative inflation – an important cause of the dysfunctions existing in contemporary public administration // " Juridical Tribune - Review of Comparative and International Law, Bucharest Academy of Economic Studies, vol. 8(2).